


IX. KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATI

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznes subyektlarining ulushi, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda (100,0%), iste’mol mollari ishlab chiqarishda (100,0 %), qurilish ishlarida (100,0 %), chakana savdo aylanmasida (97,1 %), kapital ko‘yilmalarda (80,9%), jami xizmatlarda esa (78,1 %) ni tashkil qildi.


**Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning
(2021- yil 1 oktabr holatiga**



Tumanda qulay ishbilarmonlik muxitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiylar o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muxim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, biznes muxitini yaxshilash, ularning faoliyatini uchun qulay shart-sharoit yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 331 ta yangi kichik biznes subyektlari (fermer va dexqon xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining asosiy qismi savdo (yangi tashkil etilgan subyektlarning 42,3 %), sanoat (27,5 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (9,9 %) va qurilish (7,8 %) soxalariga sohalariga to‘g‘ri keldi.

**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi**
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



**2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining
amalga oshirgan eksport-import ko‘rsatkichlari**

Ming AQSH doll.

	Viloyat eksport	Tuman eksport	Ulushi, % da	Viloyat import	Tuman import	Ulushi, % da
JAMI	356 007,5	6 262,8	1,8	435 484,4	18 403,4	4,2
Kichik tadbirkorlik subyektlari	180 384	6 262,8	3,5	334 659,6	18 403,4	5,5
<i>shundan</i>						
Kichik korxonalar	97 892,6	436,1	0,4	143 206,2	1 139,1	0,8
Mikrofirmalar	82 491,7	5826,7	7,1	191 453,4	17 264,3	9,0

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport-importdagи
ulushi, % da**

